

O‘ZBEK BOLALARI NUTQIDA BAHONING IFODALANISHI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Pulatova Umriniso Umar qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

umrinisopulatovo@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bolalar nutqida ayrim salbiy va ijobiy baho ifodalovchi birliklar haqida ma’lumot berilib, ularning o‘ziga xos pragmatik xususiyatlari yoritib berilgan. O‘zbek tilshunosligida bahoning o‘rganilish darajasi va muammolari haqida fikrlar bildirilgan. Baho tushunchasining izohi, pragmatik xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. O‘zbek bolalari nutqida baho ifodalovchi birliklarning matnda, nutq vaziyati (diskurs) orqali yuzaga chiquvchi pragmatik ma’nolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Konsept, ottenka, diskurs, struktural-semantik, pragmatika, subyektiv munosabat, kompleks hodisa, nutq vaziyati.

Baho ifodalovchi lisoniy birliklar nutq faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. Bunday til vositalari muloqot jarayonida qo‘llanish darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Baho ifodalovchi birliklar nutqda pragmatik, struktural semantik va uslubiy jihatdan keng imkoniyatlar va o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni kognitiv nuqtai nazaridan tadqiq etish tilning ma’naviy va madaniy kategoriya sifatidagi rolini yanada chuqurroq o‘rganish uchun zamin hozirlaydi hamda ta’limning turli pog‘onalarida lisoniy birliklar mohiyati va vazifasini anglashga yordam beradi.

Tilshunoslikda til birliklari va ularning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanish imkoniyatlari, matnni o‘rganish bilan bog‘liq masalalar qatori baho kategoriyasi ham ma’lum darajada o‘rganilgan. Tilshunoslikda matnni kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish borasida qator yutuqlar kiritilgan bo‘lsa-da, baho kategoriyasining kognitiv talqini hozirga qadar amalga oshirilgan emas. Baho kategoriyasi va uni yuzaga chiqaruvchi omillar, konsept tushunchasi, diskurs, nutqiy aktlar nazariyasi, semantik innovatsiya, evolyutiv birikmalar muammolarini zamonaviy tilshunoslik talablari asosida tadqiq etish o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Baholash – bu kompleks hodisa bo‘lib, unda voqelikning nafaqat gnoseologik va aksiologik aksi, balki insonga xos barcha ehtiyojlari ham o‘z ifodasini topadi. Mantiq nuqtai nazaridan ...baholash o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisani o‘zicha emas, balki insonga, uning manfaatlari, ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari, didi va hokazolarga munosabatiga ko‘ra tavsiflaydi. Shu asosda sub’ektning ob’ektga munosabatidan kelib chiqib baho pragmatik baho, emotsional baho, axloqiy baho ko‘rinishlariga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek har bir hodisa, shaxs yoki narsa predmet borki ijobiy yoki salbiy bahoga shuningdek neytrallikka ega hisoblanadi, va ular o‘zgaruvchandir. Yani ma’lum vaqtlar davomida neytrallikka ega bo‘lgan predmet yoki narsa hodisalar vaqtlar o‘tgan sari ijobiy yoki salbiy bahoga ega bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha ijobiy yoki salbiy bahoga ega bo‘lganlari neytral holatga kelishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki baholar o‘zgaruvchandir. ¹

¹ O‘zbek tilida baho munosabati. Filol.f.n...diss.avtoREF.[Qambarov G’, 2008: 26]

Dunyo tilshunosligida pragmatik lingvistikaning bu kabi muammolari qatorida bolalar nutqida kommunikativ maqsadning voqelanishi, bolalarga xos nutqiy akt ko'rinishlarining pragmatik xususiyatlari, bolalar nutqida deysisning ifodalanishi, bolalar tomonidan hosil qilinadigan nutqiy konnotatsiya hamda baho munosabati kabilarni tadqiq etish ham dolzarbdir. Ma'lumki, bolalar ongida ijtimoiy-madaniy, psixofiziologik, lisoniy omillar hamda konseptual bilimlar asosida hosil bo'ladigan olamning milliy-madaniy obrazi nutqiy faoliyat jarayonida o'ziga xos verbal ifodalar orqali reallashib, pragmatik xususiyatini namoyon qiladi. Mazkur kognitiv jarayon natijasi sifatida yuzaga keluvchi nutq ko'rinishlarining pragmatik lingvistik xususiyatlarini o'zbek bolalar nutqi misolida tadqiq etish pragmatik lingvistik uchun qimmatli nazariy bilimlar beradi.

Bolalar nutqining pragmatik tadqiqida ularning nutqini bevosita kuzatish hamda maxsus tajriba o'tkazish orqali to'plangan lingvistik materiallar bilan bir qatorda, badiiy manbalardan to'plangan misollardan maqsadli foydalanish tajribasi ham qo'llanilgan. Bayyam zo'y bo'ldi. Dada, shuni ham obering! ... – Dadajo-on! – deb erkalandi Akram» (P.Qodirov) «– Oyi, oyijon! ... – Agar bittasi xafa qisa, manga ayting, o'zzim gaplashib qo'yaman»: ba (qo'y), mo' (sigir), mi'ev (mushuk) qu-qu (parranda èki qush). 2. Narsa-predmetlarga ishora qiluvchi taqlid so'zlar: g'in, bi-bip èki di-dit (mashina), chiq-chiq (soat), puf (pufak), paq (to'pponcha). «Bugun «Qora» ammam»nikiga boramiz» (O'.Hoshimov) Masalan, bola nutqida qo'llangan mushukcham so'zida -cha affiksi orqali konnotativ ma'no (erkalash, suyish) hosil qilingan. Shu bilan birga, ushbu so'zi orqali baho munosabati (ijobiy baho) ham yuzaga chiqqan. Maktabgacha èshdagi bolalar nutqida qo'llangan -cha affiksi kichraytirish ma'nosidan tashqari erkalash, suyish kabi konnotativ ma'nolarni ham yuzaga chiqaradi. Masalan: Betimni issiqqina badaniga bosib, «buzoqcham, shirinim», deb erkalayman. (X. To'xtaboev) (erkalashsuyish ma'nosi)

Bolalar -jon affiksidan erkalash, suyish, hurmat ma'nolarini ifodalashda keng foydalanadilar. 1) erkalash: – Yana, ukasi yiqilganda o'rnidan turg'izib, ukajonim, yig'lama, deb yelkasini silab qo'yadi. (X.To'xtaboev); 2) suyish: – Akajon, sizzi yaxshi ko'raman. (Abdulloh Muhiddinov, 4 èsh); 3) hurmat ma'nosi: – ...Bobojonlar yiqilganda o'rnidan turg'azib qo'yaman, zorlansa, ko'chatlarini ko'chirib beraman. (X.To'xtaboev)

Bolalar nutqida kattalarda kuzatilmaydigan o'ziga xos so'z birikmalari uchraydi. Masalan, qora amma, chiroyli xolam, yolg'onchi amaki kabilar. Bunday so'z birikmalari ifodaning ta'sirchanligini oshiradi, obrazlilikni yuzaga keltirib, tinglovchini o'ziga jalb qiladi. Masalan: – Buvijon, chiroyli xolajonim keldila! (Robiya Xasanova, 7 yosh)

Albatta, davr nuqtai nazaridan olib qaralsa, sub'ekt tomonidan ob'ektga berilgan bahoni qat'iy va barqaror deb bo'lmaydi. Sub'ekt tomonidan ijobiy baholangan ob'ekt oradan ma'lum bir vaqt o'tgach, salbiy baholanishi mumkin. So'zlovchi baholanuvchi ob'ektga nisbatan befarq munosabatda bo'lishi mumkinligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Xuddi shunday, tanbeh ham vaqt o'tishi bilan maqtovg'a aylanishi mumkin, yoki aksincha.

Nutq ob'ektini baholashda muloqotchilarning sub'ektiv munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq ishtirokchilarining dunyoqarashi, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy nufuzi, mavqei, nutq ob'ektining so'zlovchiga bog'liqlik darajasi, yaqinligiga ko'ra ob'ekt turlicha baholanishi mumkin. Shunday ekan bolalar nutqida ham bahoning yuzaga chiqishi o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki bolalar nutqida baho boshqalariga o'xshamagan turli qirralari va pragmatik xususiyatlariga ega.

Bola shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni ilk bolalik davrining oxiri va bog'cha yoshining boshidagi o'ziga-o'zi baho berishning genezisida (yuzaga kelishida) bolaning

kattalar bilan bo'lgan muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega boladi. Bola o'zining imkoniyatlari haqida adekvat bilimga ega bolmaganligi tufayli kattalarning unga bergan bahosini qabul qiladi. Boshqacha aytganda, bola o'zini kattalar orqali, ularning bola haqidagi fikri orqali baholaydi. Bola bu davrda o'ziga-o'zi baho berishda to'liq'icha kattalarning fikriga suyanadi. O'zi haqidagi mustaqil tasavvur elementlari esa biroz keyinroq paydo bo'ladi.

Maxsus taqiqotlarning ko'rsatishicha, (B.G. Nechaev va b.) ushbu elementlar dastlab shaxsiy sifatlar, axloqiy fazilatlarni baholashda emas, balki predmetli va tashqi xususiyatlarni baholashda namoyon bo'ladi. Bu esa harakatlarning predmetdan to'liq ajralib chiqmaganligini ko'rsatadi. Bog'cha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida ancha sezilarli bo'lgan o'zgarish o'zga kishining tashqi xususiyatlarini baholashdan shaxsiy xususiyatlarini baholashga o'tishida ifodalanadi. Barcha yosh guruhlaridagi bolalarda o'zlaridan ko'ra o'zga shaxslarni ob'ektivroq baholashlari kuzatiladi. Biroq bu yerda ham ma'lum bir farqlar uchraydi. Jumladan, katta bog'cha yoshidagi bolalar "Sizlarning orangizdagi eng yaxshi bola kim?" degan savolga odatda "Men" deb javob bermaydilar. Ammo bu bolaning o'ziga-o'zi beradigan bahosi pasayganini bildirmaydi. Bolalarning bunday javobni bermasliklariga sabab shundaki, bu yoshda ular ko'pincha maqtanchoqlik yaxshi emasligini biladilar. Agar o'zlarini ijobiy tomondan baholamoqchi bo'lsalar, buni ko'pincha bilvosita amalga oshiradilar. Masalan, "Sen yaxshi bolamisan yoki yomon bolamisan?" degan savolga bolalar (bog'chaning katta guruh bolalari) "Yaxshi" yoki "Yomon" deb javob bermaydilar, buning o'rniga "Bilmadim... Men kattalarga quloq solaman", "Men ham 100 gacha sanashni bilaman", "Men doim navbatchilarga yordam beraman" deb aytadilar. Bog'cha yosh davrida o'ziga-o'zi baho berish emotsional xarakterga ega bo'ladi. Bolaning boshqalarga beradigan bahosi ham shunday xususiyatga ega bo'ladi. Bola uni o'rab turgan kattalardan qaysi biriga ishonch his etsa, mehri tovlansa o'sha kishiga ijobiy baho beradi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalar ulami o'rab turgan kattalarning ichki olamiga baho berishga harakat qiladilar. O'rta va kichik bog'cha yoshidagi bolalardan farqli ravishda kattalarning ichki olamiga anchagina chuqur va differentsiallashgan baho beradilar. Aniqlanishicha bolaning guruhda egallagan mavqei uning o'ziga o'zi beradigan bahosiga ta'sir etadi. Masalan, guruhdagi mavqei unchalik baland bo'lmagan bolalarda o'ziga juda yuqori baho berish, aksincha guruhdagi mavqei ancha yaxshi bo'lgan bolalarda o'zini past baholash tendentsiyasi kuzatiladi. Bog'cha yoshining oxiriga kelib, bolaning atrofdagilarga beradigan bahosi ancha chuqur, to'liq detallashgan va kengaytirilgan tus ola boshlaydi.

Bu o'zgarishlar shu bilan tushuntiriladiki, katta bog'cha yoshidagi bolalarda odamlarning ichki olamiga qiziqish ortib boradi, ular baho berishda muhim bo'lgan mezonlarni o'zlashtirib boradilar, tafakkur va nutqlari rivojlanib boradi. Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o'tishida hamda uning maktabga psixologik tayyorligida muhim rol o'ynaydi. Bog'cha yoshining oxiriga kelib bolaning o'zgarilarga va o'z-o'ziga beradigan bahosidagi mustaqillik, tanqidiy ruh ancha o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolaning motivatsion sohasi aktiv rivojlanib boradi. Kichik bog'cha yoshidagi bolaning xulq — atvori ilk bolalik davrlarida unchalik farq qilmaydi. Bu davrda ham bolalar asosan situativ emotsiyalari va xohish—istaklari ta'sirida harakat qiladilar, biror harakatni bajara turib ular nima uchun shunday qilayotganliklarini to'liq tushunmaydilar va tushuntira olmaydilar. Katta bog'cha yoshidagi bolalarning xatti —harakatlari ancha aniq tarzda ro'y beradi. Har xil motivlar bog'cha yoshining turli bosqichlaridagi bolalarni aynan bir harakatni amalga oshirishga undaydi. Masalan, 3 yoshli bola o'yinchoqlarini yuvishdan maqsadi suv o'ynash bo'lsa, 6 yoshli bolaning maqsadi o'yinchoqlarini toza qilish, onasiga yordam berishdan iborat bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti. - 1986. - № 6. - B. 28- 31;

2. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. [Hakimov M, 2013: 176]
3. O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari.[Mamarajabova Z, 2004: 20]
4. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi. [Nurmonov A, 1986: 45]
5. O'zbek tilida baho munosabati. Filol.f.n...diss.avtooref.[Qambarov G', 2008: 26]
6. Pragmalingsvistika. [Safarov Sh, 2008: 318]
7. Kognitiv tilshunoslik. [Safarov Sh, 2006: 92]